

## YURAK GLIKOZIDLARI

*Alijonov Sayidjalol Xomidjon o'g'li*

*Norin Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat*

*salomatligi texnikumi farmakologiya asoslari fani o'qituvchisi*

*Email: sjalijonov004@gmail.com*

*Telefon: +998885770024*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Glikozidlar Yurak glikozidlari va tarkibida shu moddalar bo'lgan dorilar va dorivor o'simliklar haqida aytib o'tilgan.*

**Kalit So'zlar:** *Digitoksin , Digoksin , Selanid , Strofantin atsetat*

### KIRISH

Glikozidlar – molekulari uglevod bilan biror organik birikma qoldig'ining glikozid bog' orqali brikishidan hosil bo'lgan organik moddalar. Ularning ko'pchiligi kristall, achchiq ta'm va o'ziga xos xidli brikmalardir. Tadqiqot maqsadi: Yurak glikozidlari tarkibida dori va dorivor o'simliklar borligini aniqlash . Tadqiqot materiallari va usullari :Glikozidlar yurak – qon tomir yetishmovchiligini davolashda eng asosiy va keng qo'llanadigan moddalar hisoblanadi. Yurak yetishmovchiligida glikozidlar shunday kuchli shifobaxsh ta'sir etadi.

Yurak glikozidlari o'simliklardan olinadigan, yurakka tanlab ta'sir ko'rsatadigan murakkab organik moddalardir.Tarkibida glikozidlar saqlaydigan o'simliklar qadim zamonlardan beri xalq tabobatida siydikni haydash, yurak, asab kassaliklarini davolash uchun qo'llanib kelingan.Yurak glikozidlari digitalisining bir necha turlaridan Adonis, Marvaridgul, Chitrang'i, Strofant,Oleandr,kendir va boshqa o'simliklardan olingan. Kimyoviy jihatidan yurak glikozidlari organizmda hosil bo'ladigan steroid gormonlar, xolesterin, safro kislotalarga o'xshab ketadi, balki yurak glikozidlarining o'zi ham odam organizmida hosil bo'lar, balki shu

moddalar yetishmovchiligi tufayli yurak kassaliklari paydo bo‘lar degan ilmiy gipotezalar ham bor [1].

Shuning uchun yurak glikozidlarini haqli ravishda korgormonlar deb atasa ham bo‘ladi. Yurak glikozidlari markaziy nerv sistemasiga tinchlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi, qo‘zg‘aluvchanlik va tormozlanish jarayonlari normallasadi. Yurak glikozidlarining farmokokinetikasi: fizik-kimyoviy jihatdan yurak glikozidlari qutblangan ,qutblanmagan va nisbiy qutblangan moddalarga bo‘linadi. Qutblangan glikozidlar suvda eriydigan -gidrofil moddalar bo‘lib, lipidlarda kam eriydi, me‘da-ichkdan yomon so‘riladi. Shu tufayli qutblangan moddalar-strofantin K, konvallatoksin parenteral yo‘llar orqali venalarga asta-sekin yuboriladi [2].

Bularning ta’siri tez,5-10 minutdan keyin boshlanib,25-30 minutdan keyin avjga chiqadi.Strofantinning yarim hayoti 21-22 soatni tashkil qiladi,2-3 kundan keyin organizmdan 65 % butunlay o‘zgarmagan holda, 30 % jigarda biostransformatsiyaga uchrab, siydik orqali buyuraklardan hamda o‘t – safro orqali ichakdan chiqib ketadi. Qutblanmagan glikozidlar –digitoksin lipidlarda yaxshi eriydi. Lipofil moddalar og‘iz orqali yuboriladi. Me‘da – ichakdan yaxshi so‘riladi, qon oqsillari – albuminlar bilan bog‘lanadi. Ta’siri 2-4 soatlardan keyin boshlanib, 8-12 soatda avjga chiqadi, bularning yarim hayoti 5 kunni tashkil qiladi. 14-21 kundan keyin ta’siri o‘tib ketadi [3].

Jigardan o‘t orqali ichakka o‘tib u yerdan yana qonga so‘riladi, asosan ichak orqali organizmdan chiqib ketadi. Moddalar organizmda davomli aylanadi, to‘planadi – kumulyativ xususiyati bor, bunda moddaning o‘zi to‘planadi - moddiy kumulyatsiya ro‘y beradi. Ba’zi glikozidlar – dgoksin selanid qutblangan va qutblanmagan moddalar o‘rtasidan o‘rin olgan, nisbiy qutblangan deb ataladi. Ular qutblanganlardan me‘da – ichak orqali yaxshi so‘rilishi bilan farq qiladi, og‘iz orqali va venaga yuboriladi, qonga so‘rilishdan keyin oqsillar bilan bog‘lanishi mumkin, qutblangan glikozidlarga nisbatan organizmda sekinroq asosan buyurak orqali 3-6 kunda chiqib ketadi [4-5] .

Glikozidlar ta'sirining davomiyligi bo'yicha uch guruhga bo'linadi: 1. Qisqa muddat ta'sir etuvchi moddalar – strofantin konvallatoksin, strofantin atsetat, korglikon bular venaga yuborilganda ta'siri tez boshlanadi, davomli bo'lmaydi. 2. O'rtacha muddat ta'sir etuvchi moddalar – digoksin, selanid, adonized, og'iz orqali yoki venaga yuboriladi. Venaga yuborilganda ta' siri tez ichilganda sekin boshlanadi va davomliroq bo'ladi. 3. Uzoq muddat ta'sir etuvchi moddalar – digitoksin og'iz orqali yuborilganda ta'siri asta – sekin boshlanib davomli bo'ladi, moddaning kumulyativ xususiyati bor [6-7].

**Yurak glikozidlari** — [o'simliklardan](#) olinadigan tabiiy glikozidlar. Tarkibida Yurak glikozidlari bor o'simliklar qadimiydan ma'lum, ular xalq va ilmiy tabobatda qo'llanib kelingan. Yurak glikozidlaridan [yurak xastalıkları](#) va boshqalar kasalliklarni davolashda foydalanilgan.

Qadimgi misrliklar dengiz piyozini, rimliklar va yunonlar erizimumni yurak kasalliklarida va peshob haydovchi sifatida ishlatishgan. 11-asrda [Angliyada angishvonagul xalq tabobatida](#) dori vositasi sifatida ma'lum bo'lgan [8-9].

Yurak glikozidlari tutuvchi o'simliklar butalar, lianalar, o'tlar shaklida uchraydi. Yurak glikozidlari saqlovchi o'simliklarning 45 ga yaqin turi aniqlangan, ularning 9 tasi [O'zbekiston](#) Respublikasi hududida o'sadi. Ular sigirkuyruqdoshlar, kedirdoshlar, loladoshlar, ayiqtovondoshlar, [jo'kadoshlar](#), tutdoshlar va boshqalar.

Angishvonagul barglaridan digoksin, selanid, lantozid; strofant urug'idan strofantin K.; adonis o'simligining yer ustki qismidan adonis, adonisbrom; marvaridgul yer ustki qismidan korglikon, konvaflavin kabi dori vositalari olinib, ular zamonaviy tibbiyotda yurak xastalıkları (yurak poroklari va u tufayli qon aylanishining II va III darajali buzilishi, yurak astmasi, yurak shishi)ni davolashda, peshob haydovchi va boshqalar sifatida keng qo'llanadi. Bir qancha Yu.g. tinchlantiruvchi xossaga ham ega [10].

## Natija

Yurak glikozidlar ta'sirining davomiyligi, yurak glikozidlarining so'rilishi va oqsillar bilan bog'lanish haqida aytib o'tdik.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Yurak glikozidlari markaziy nerv sistemasiga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, qo'zg'aluvchanlik va tormozlanish jarayonlari normallashi. O'tkir va surunkali yurak – qon tomir yetishmovchiligida qo'llanilishi va bu yetishmovchilik har xil yurak poroklarida, miokardit, gipertoniya, miokard infarkti, koronakardioskleroz kabi yurak kassliklari kelib chiqishi va ularga ta'sir etuvchi moddalarni bilib olishimiz muhim ahamiyatga ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Liang NA, Khan MA Medical rehabilitation of children with bronchial asthma // Allergology and Immunology in Paediatrics. - 2016. - №. 2 (45). - C. 7-20.
2. Ponomarenko G. N. Medical rehabilitation //Textbook. GEOTAR-Media-Moscow. - 2014. - C. 360.
3. Serdyuk A. M., Polka N. S., Sergeta I. V. Psychohygiene of children and adolescents suffering from chronic somatic diseases. - Nova Kniga, 2012.
4. Trukhan D., Viktorova I. Diseases of respiratory organs. Study guide. - Litres, 2022.
5. Deryabina G. I., Mukina E. Y., Lerner V. L. Influence of physical training and recreational activities with the use of pneumatic trainers on the psychomotor state of children with cerebral palsy // Vestnik of Tambov University. Series: Humanities. - 2013. - №. 11 (127). - C. 188-194.
6. Kolosov V. P., Manakov L. G., Kurganova O. P. Organisation and quality of medical care for pulmonology patients. P. Organisation and quality of medical care for pulmonology patients. - 2017.
7. Kirilyuk K. V. Role of the quality of life study to assess the impact of psychosomatic factors in chronic obstructive pulmonary disease // Baikal Medical Journal. - 2008. - T. 80. - №. 5. - C. 67-69.

8. Simonova O. I., Chernyavskaya A. S. Peculiarities of the fasting syndrome in children with chronic nonspecific lung diseases //Consilium Medicum. - 2023. - T. 25. - №. 8. - С. 512-517.
9. Ezhov V. V. Physical activity in thalassotherapy programmes at seaside climatic resorts. *Physicheskaya i rehabilitatsionnaya meditsina*. 2020; 3: 40-48 [Electronic resource].
- 10.S.S.Azizova – Farmakologiya “ Yurak glikozidlari “ 215 -223 betlar .Toshkent “Yangi asr avlodi “ 2006. 2.Q.A.Ubaydullayev, I.A.Azizov, A.K.Saidvaliyev, V.N.Abdullabekova, A.A.To‘laganov, N.A.Yunusxodjayeva – Farmasevtik kimyo “Farmasevtik tahlil “ 423 – 430 betlar. Toshkent ‘EFFECT – D’ - 2021.